



MEHNAT TARBIYASI – MA'NAVIY TARBIYANING NEGIZI

Abdumalikov A.I.

*Andijon davlat universiteti, Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası, PhD.*

Tayanch so'zlar: ezgulik, adolat, vijdon, halollik, insonparvarlik, go'zallik, ma'naviyatning tamal toshi, qadriyatlar, mehnat.

Ключевые слова: добродетель, справедливость, совесть, честность, человечность, красота, краеугольный камень духовности, ценности, труд.

Key words: virtue, justice, conscience, honesty, humanity, beauty, the cornerstone of spirituality, values, work.

Резюме:

Ushbu ilmiy maqolda o'tmishda o'z otlariga ega boigan oilalarda bolalar kichik yoshlaridan chavandozlikni o'rgana boshlagan. Inqilobgacha oigan ayrim mualliflarning kitoblarida o'zbeklar o'gil bolalarni besh yoshidan otga mindirganini va ular o'n yoshlaridan jang o'yinlari hamda chavandozlik poygalarida qatnashgani tilga olingan.

Резюме:

Согласно этой научной поговорке, в прошлом в богатых семьях, владевших собственными лошадьми, детей начинали обучать верховой езде с юных лет. В книгах некоторых авторов революции упоминается, что узбеки с пяти лет сажали мальчиков на лошадей, а с десяти лет принимали участие в боевых играх и конных скачках.

Summary:

In this scientific proverb, in the past, in wealthy families who owned their own horses, children began to learn horsemanship from a young age. In the books of some of the authors of the revolution, it is mentioned that Uzbeks put boys on horses from the age of five, and from the age of ten they took part in combat games and equestrian races.

Yozma manbalarda o'zbeklarning faqat erkaklari emas, balki ayollari ham ot minishni yaxshi bilgani qayd qilingan. Tarixiy manbalarda yozilganidek, o'zbek ovullarida ot poygalari har qanday qulay hollarda, hatto, yangi uy solinishi munosabati bilan ham oikazilgan. Bunday musobaqalarga kishilar qunt bilan tayyorgarlik ko'rganlar, o'z otlarini tayyorlaganlar va bunday ishlarda o'smirlar hamda yoshlar zimmasiga ko'p vazifalar yuklangan. Ayrim kishilar o'zining butun hayotini poyga otlarini tayyorlash kasbiga bagishlagan, Otalar yoki bobolar oczlarining ana shu sohadagi tajribalarini va chavandozlarga muhabbatini



kichkintoylarga o'rgatgan. O'zbek bolalari o'yinlarining ayrimlari harbiy o'yinlar bo'lib, buning sababi vatan mudofaachilarini tayyorlash va tashqaridan tez-tez bo'lib turadigan hujumlarni muvaffaqiyatli qaytarish zarurligidan edi.

“Kamon otish”, “Nayzabozlik”, “Urush” va boshqalar harbiy o'yinlarga kirgan. O'zbek bolalari orasida 5-6 yoshlaridan boshlab kamon otish o'yini juda ommaviy tus olgan. Jamoatchilik bu o'yinni ma'qullagan va kattalar doimo bolalarni qamon otishga rag'batlantirganlar. Xalq tarbiyasida kamon otish o'yiniga qanchalik e'tibor berganini shundan ham anglash mumkinki, onalar o'z allalarida o'g'ining kuchli va kamon otishda mohir bo'lishi haqidagi istaklarni kuylaganlar. Uzoq o'tmishda o'zbeklar oigan kishining qabriga ham kamon o'qini qo'yib ko'maganlar. Boshqacha aytganda, o'zbek uchun kamon o'qi qabristongacha hamroh boigan. Kamon otish jasurlikni tarbiyalagan, mohir kamonchi - jangchilar tayyorlashning yaxshi maktabi bo'lgan. Xalq pedagogikasi bolalarning qoilaridan keladigan mehnatda qatnashuvini ularni kompleks tarbiyalashning samarali vositalaridan biri deb hisoblagan. Mehnatning jamoa turlari yosh avlodni tarbiyalashda alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek xalqida jamoa bo'lib bajariladigan ishlarning ko'maklashish, hashar kabi birqancha shakllari boigan.

O'zbek xalqining mehnat an'analari ichida hashar muhim rol o'ynaydi. U xalqimizning avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ajoyib an'alaridan biridir. Hashar yaqin kishilarining, tanish-bilish, oshna- og'ayni, qadindosh-urug', hamkasblarning imorat qurish, to'y va ma'rakalar uyushtirish, qishloq xo'jalik ekinlarini tez yig'ib olishda o'zaro bir-birlariga yordam berishidir.

Bunday ishlar jarayonida yoshlar mehnat qilishgagina o'rganib qolmay, balki jamoaga uyushish, umumiy ishdan manfaatdorlik, o'zaro yordam zaruratini anglash kabi yuksak axloqiy sifatlarini egallaydilar. Shuni ta'kidlash kerakki, qadim zamonlardan buyon zarur, mas'uliyatli hamda ko'p kuch va mablag' sarflab bajariladigan ishlarda qo'lanadigan xolisona jamoaviy o'zaro yordamning umuman e'tirof etilgan va ishonchli shakllari bo'lib, xalqning hayotida juda muhim rol o'ynagan. Ular mehnatkashlar hamkorligining yorqin ko'rinishini, xalqning jamoachilik, do'stlik, o'rtoqlik, bir-biriga tayanish va o'zaro hamjihatlik haqidagi g'oyalarini ifodalagan va shunga ko'ra katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan.

Qadimda donishmand xalqimiz aqliy va mehnat tarbiyasida chorvachilik, bog'bonchilik, suvchilik sirlari haqida bolalarda tasavur hosil qilish va ma'lum bilimga ega bo'lishlari umuman, inson qo'li va aqli yaratuvchilik qudratiga egaligini bilishga qiziqish tuyg'usini o'stirish maqsadida, o'zlari yaratgan maqollardan mohirona foydalanganliklarini ko'ramiz:

*Bog'bon bo'lsang, sahar qil,
Dehqon bo'lsang, shudgor qil.*

*Dehqon - yer sultoni,
 Cho'pon - yaylov sultoni.
 Chorva to'q - tashvish yo'q.
 Molli uy - moyli uy.
 Qo'yni boqsang, qo'zilar;
 Molni boqsang, buzoqlar.
 Suv qatراسi - dur qatراسi.
 Qor - yerning ko'rpasi.
 Yomg'ir-yerning sho'rvasi.
 Barvaqt qilingan harakat,
 Hosilga berar barakat.
 Vaqt ketdi - baxt ketdi,
 Vaqt g'animat, o'tsa - nadomat.*

Xalq pedagogikasida yigit-qizlarni yoshligidan mehnatsevarlik va kasb-hunarga havas hissini tarbiyalashga alohida e'tibor berildi. Turli kasb egasi bo'lgan ota-onalari, buva va buvilari bilim va tajribalarini bolalariga qunt bilan o'rgatdilar, ularni ustoz-shogird sifatida dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, ovchilik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik, o'ymakorlik, zargarlik, to'qimachilik, tikuvchilik, tabiblik va boshqa sohada kasbkor bo'lib yetishishiga ko'maklashishdilar. Bunda "Mehnatingni halol qilsang, huzurini ko'rasan", "Mushkulliklardan hayot emas, faqat tadbir va mehnat qutqazadi", "Baxtli bo'lish-mehnatni sevish va rohatni mehnatda ko'rishdir", "Mehnating - ziynating", "Ota kasbi - davlat kasbi", "Ustoz ko'rmagan shogird, har maqomga yo'rg'alar", "Avval o'rgan, keyin o'rgat", "Aql qo'lga yetkazar, hunar ko'kka", "Ustozsiz shogird-jonsiz kesak" kabi xalq maqollari yoshlar uchun asosiy tarbiya vositasi bo'lib xizmat qildi.

"Vafodorlik" ertagida shunday deyiladi: "Chol asta-sekin Gulshodni tabiblikka o'rgatibdi, giyohlardan har xil dorilar tayyorlashni va bemorlaming kasalini aniqlash yo'larini o'rgatibdi. Bir yildan so'ng, Gulshod choldan ko'p narsani o'rganib olibdi.

Asta-sekin butun yurtga Gulshodning tabiblik hunari maium bo'libdi, har tomondan uning oldiga bemorlar kelibdi..."

"Oygul bilan Baxtiyor" ertagida: "Qadim zamonda bir podshoh boigan ekan, uning bir qizi bor ekan. U qiz juda aqlli, dono ekan. Soz chertar ekan, qo'shiq aytar ekan, gilam to'qir ekan, surat solar ekan. Qisqasi, qirq hunari bor ekan..." - deyilgan.

"Makkar ustia bilan ayyor kal" ertagida keltirilishicha, charx yigirib kun ko'ruvchi qashshoq kampiming o'g'li onasini qo'yarda-qo'ymay podshohning qiziga sovchi qilib yuboribdi. Podshoh yigitning onasiga:



“Bolangga ayt, qirq turli hunar o’rgansin, o’rgangan hunarining hammasi boshqa-boshqa boisin, bir-biriga o’xshamasin debdi”. Yigit qirqta hunami qunt bilan o’rganib, podshohning qiziga uylanibdi. Shorasul Zunnunning mashhur “Oz-oz o’rganib dono bo’lur” kitobida kasb-hunaming sharofati xususida shunday hikoya (hikoyat) keltiriladi. “Qadimgi arab hukmdorlaridan xalifa Xorun ar-Rashidga tobe bir shahar boshligi shunday hikoya qiladi:

- Otam har vaqt meni hunar o’rgatishga da’vat qilib: “o’g’lim yoshligingni g’animat bilib, hunar o’rgan, mansab va davlatingga ishonma, bir kun bulaming hammasi qoidan ketishi mumkin, ammo hunar doimo sen bilan birga boiadi, seni hech bir muhtojlikka tushirmaydi”, - deb nasihat qilardi.

Men otamning nasihatini jonu dilim bilan qabul qilib, hunar o’rganishga bel bogiadim. Hunarlar orasida gilam to’qish hunari menga juda ham ma’qul boiib tushdi. Gilam to’qiydigan eng mohir ustaga shogird boiib, shu hunami o’rganishga g’ayrat bilan kirishdim. Nihoyat, gilam to’qishda mohir usta boiib yetishdim.

Xalifa Xorun ar-Rashid otam vafot etgandan keyin uning o’miga meni shahar boshligi etib tayin qildi. Oradan bir necha vaqt o’tgandan keyin xalifa Xomn ar-Rashidni ziyorat qilish maqsadida ikki yo’ldoshim bilan paytaxt Bag’dodga jo’nadik. Bir necha kun safar ranjini tortib, Bog’dod shahriga dohil bo’ldik. Qornimiz och edi. Juda ziyatlangan va ozoda bir oshxonaga kirdik. Oshxona egasi bizni ko’rgan zamon darhol yonimizga kelib, hol-ahvol so’rashib aytdi:

- Sizlar boshqa shahardan kelgan obroii kishilarga o’xshaysizlar, bozorda ovqatlanish sizlar uchun aybdor. Oshxonaga yaqin bir ozoda joyim bor, o’sha yerda ovqatlaning. Biz uning taklifini qabul qildik. U bir xizmatchisiga bizni o’sha joyga olib borishni buyurdi. Xizmatchi bizni juda bezatilgan bir uyga olib bordi va uyning eshigini ochib:

- Shu uyda dam olib turing, men hozir borib ovqat keltiraman,-dedi. Biz uyga kirgan edik, xizmatchi eshikni berkitib jo’nab ketdi. Oradan ozgina fursat ham o’tmagan edi, biz turgan yer ikkiga ajralib, hammamiz pastga, bir yerto’ladagi uyga tushib ketdik. Yuqoridagi uyning ikkiga ajralgan yeri yana avvalgidek bir-biriga jiplashdi. Biz hayron bo’lib qo’rqib turgan edik, oshxona egasining bir necha xizmatchilari qo’llariga pichoq ushlaganlari holda yonimizga keldilar, ularni ko’rgach, hammamiz jonimizdan umid uzdik. Oshxona egasi musofirlami shunday hiyla bilan o’ldirib, ulaming go’shtlarini ovqatga solib, pishirib, sotar ekan. Shu tobda mening miyamga bir fikr kelib, ularga:

- Biz yaxshi gilam to’qishni bilamiz, bizni o’ldirishdan nima foyda ko’rasiz? Borib, boshligingizga ayting, bizga gilam to’qish uchun kerakli narsalarni



yuborsin, tayyor bo'lgan gilamlarni sotib juda katta foyda ko'radi, - degan edim, ularga taklifim ma'qul bo'ib, chiqib ketdilar.

Taklifim oshxona egasiga ma'qul bo'ibdi. Ertasiga bizni boshlab kelgan xizmatchi gilam to'qishga kerak bo'ladigan asbob va boshqa narsalami keltirib berdi. Biz gilam to'qishga kirishdik. Tayyor boigan gilamni xizmatchi kelib olib ketardi. Bir necha vaqt shu xilda umr kechirdik. Bir kun juda ham chiryli, guidor gilam to'qidim, uning bir chetiga otim yozilgan muhrimni bosdim. Oshxona egasini chaqirtirib:

- Ko'rdingmi, bu gilam qanday chiroyli to'qilgan, podshohlarga maxsus bir gilam, buni bozorga sotmasdan, xalifa Xorun ar-Rashidga olib boring, u sizga ko'p in'om qiladi, -dedim.

Oshxona egasiga bu so'zim ma'qul bo'lib, ertasiga gilamni Xorun ar-Rashidga olib borgan. Xorun gilamning chiroyligiga zavqlanib, uning u yoq bu yog'ini ko'rar ekan, ko'zi gilamning bir chetiga bosilgan muhrimga tushib qolgan, bundan shubhalanib, oshxona egasidan bu gilamni qayerdan olganini so'ratgan ekan, u bir savdogardan sotib olganini aytgan. Xorun ar-Rashid muhrimni ko'rsatib, uni qamoqqa olgan, bir necha vaqt qiynagandan keyin oshxona egasi aybiga iqror bo'lgan.

O'sha kuni Xorun ar-Rashidning yuborgan odamlari kelib bizni ozod etib, xalifaning huzuriga keltirdilar. "Oshxona xizmatchilarini qamadilar Xorun ar-Rashid bizga ko'p iltifotlar qildi. Oshxona egasi va uning xizmatchilarini dorga ostirdi. Xalifa Xorun ar-Rashid yonida bir necha kun turib, keyin o'z shahrimizga qaytdik. Shunday qilib, hunarimning sharofatidan men ham, ikki yo'ldoshim ham o'limdan qutuldik".

Ushbu hikoyatda har bir inson uchun kasb-hunar o'rganish zarurligi g'oyasi va yigit to'qigan gilamda uning aql-idroki, zakovati, kasbga boigan muhabbati o'z ifodasini topgan.

O'zbek xalq pedagogikasida bolalami mehnat tarbiyasida o'z-o'ziga xizmat qildirish, ishontirish, qiziqtirish, nasihat qilish, maslahat berish, amalda ko'rsatish va rag'batlantirish usullaridan samarali foydalanish yaxshi natija bergan. Bu usullar, namunali ishlar qilgan yigit-qizlarga nisbatan qoilangan: "Barakalla", "Juda soz", "Rahmat", "Umringdan baraka top", "Baxtli bo'lgin" so'zlari bilan yigit-qizlaming ko'ngli ko'tarilgan, kulib-erkalab boshi silangan va h.k. Shuningdek, mehnat tarbiyasida ijtimoiy foydali mehnat qilishni istamagan, topshiriqni bajarmagan, dangasa-ishyoqmaslarga nisbatan esa jazolash usuli qo'llangan. O'zbek xalq pedagogikasida iqtisodiy tafakkur bilan tijorat faoliyati uzviy birlikni tashkil etshgan. Xalq iqtisodiy tarbiyaning zamrligi va mohiyatini bilgan holda, bolalami yoshligidan tijorat (savdo-sotiq) ishlariga jalb etadi. Bolalar ota-bobolarining yonlarida bo'lib, hisob-



kitobni, tarozida narsalarning og'irligini aniqlashni, xaridorlar bilan qay tarzda muloqotda, muomalada bo'lishni o'rganadilar, shu zaylda ular o'zlari ham mustaqil suratda tijorat (savdo-sotiq) ishlarini bilib oladilar. Natijada bolalarning yoshligidan savdo-sotiq ishiga jalb etirilishi ularning iqtisodiy tarbiyasiga yordam beradi: bolalar mollarning sifatini aniqlash, bir molning boshqa moldan farqini ajratish malakasini egallaydilar.

Mehnat tarbiyasi - tarbiyaning muhimturi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, institutizm, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko'zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo'lganligi uchun ham Mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldin paydo bo'lgan. Mehnat tarbiyasi g'oyat keng falsafiy-pedagogik kategoriya bo'lib, "mehnat ta'limi", "kasbga yo'naltirish", "politexnik ta'lim", "kasb ta'limi" singari tushunchalarni o'z ichiga oladi. Mehnat tarbiyasi berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham barcha ilohiy kitoblar va hamma mutafakkirlar tomonidan yaratilgan bitiklarda Mehnat tarbiyasiga katta e'tibor berilgan. Lekin ularga materialist (moddiyunchi)lardan farqli tarzda Mehnat tarbiyasi deyilganda faqat jismoniy mehnatga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish ko'zda tutilmagan. Mehnat tarbiyasi, avvalo, oilada bola o'zini anglay boshlashi bilanoq amalga oshirila boradi. Jumladan, chaqaloklar go'daklik bosqichiga o'tishlari bilanoq, ularga dastlabki Mehnat tarbiyasi berila boshlanadi. Shunday qilinmasa, bola faqat iste'molchiga aylanib qoladi va natijada u noshud va yalqovgina emas, ma'naviyati kemtik shaxs ham bo'lib shakllanishi mumkin. Bolalarga Mehnat tarbiyasi berishda bog'cha, maktab singari ijtimoiy pedagogik muassasalar katta o'rin tutadi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishdagi asosiy jihat shundaki, u bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiy, aqliy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Bolaning imkoniyatlaridan yengil Mehnat tarbiyasi ularni zeriktirgani kabi ularning imkoniyatlaridan og'ir topshiriqlar bolalarni bezdirishi mumkin. Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda tizimlilik va institutizm bo'lishiga qat'iy amal qilinishi joiz. Aks holda, har qanday qobiliyatli bola ham yetarlicha Mehnat tarbiyasi ololmasligi mumkin. Mehnat tarbiyasi uchun maktab davri eng qulay fursatdir. Birinchi navbatda, o'qish jarayonining o'zi og'ir aqliy mehnatdir. Maktabga o'z vaqtida kelib-ketish, o'qish-yozishni o'rganish, berilgan bilimlarni egallash uchun o'quvchilarga. Mehnat tarbiyasi berilgan bo'lishi kerak. Chunki o'quv topshiriqlarini bajarish, dars o'zlashtirish, o'tilganlarni takrorlash, yozma ishlar bajarish, kerakli matnlarni yodlash, ko'chirmalar olish, lug'atlar bilan ishlay olishi uchun o'quvchi muayyan



intizomga rioya etishi, tashkilotchilik qobiliyati va ishchanlik xususiyatiga ega bo'lishi, ishning ko'zini bilishi kerak. Mehnat tarbiyasida, avval aytilganidek, mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish jarayonlarining ham o'rni katta. Chunki bu jarayonlarda o'quvchilarni bevosita tegishli mehnat ko'nikmalarini egallash va ularni mustaqil ravishda qo'llash bosqichini o'taydilar. Shuningdek, ular bu asnoda qaysi bir mehnat yo'nalishi o'ziga muvofiqroq ekanligini bilib oladilar. Shuning uchun ham mehnat ta'limi imkon qadar xilma-xil bo'lishi hamda o'quvchilarning aqliy, jismoniy imkoniyatlari va jinsiy xususiyatlarig amuvofiq kelishi zarur.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997-yil 29-avgust)ga muvofiq, o'rta maxsus ta'lim bosqichining majburiy bo'lganligi o'zbek o'quvchilariga Mehnat tarbiyasi berishda alohida ahamiyat kasb etgan. Chunki, bu bosqich to'liq kasbga yo'naltirilgan bo'lib, kasb hunar kollejlari o'quvchilari bevosita o'zlari tanlagan kasblarga doir ko'nikma va malakalar shakllantirsalar, akademik litsey o'quvchilari kelajakda egallaydigan kasblarning nazariya asoslarini o'zlashtirganlar.

Oliy ta'limning bakalavriat va magistratura bosqichlarida Mehnat tarbiyasi bevosita kasb ta'limi bilan qo'shib amalga oshiriladi. Mehnat tarbiyasi berishda o'quvchilarning bo'shvaqtidan to'g'ri foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bolalarning o'quv rejasida ko'zda tutilgan, mehnat amaliyotini o'tashlarini to'g'ri tashkil etish, ularni bolalar, o'smirlari ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari qoshidagi to'garaklarga ko'proq jalb qilish yosh avlodning komil shaxslar sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Olijanob fazilatlar sohibi bo'lgan bag'rikeng xalqimiz oldida ta'zim qilaman. – T.: O'zbekiston, 2016. – 38 b.
2. Karimov I.A. Hayot sinovlarida toblangan Qashqadaryo eli har qanday yuksak marrani egallashga qodir. – T.: O'zbekiston, 2016. – 27 b.
3. Karimov I.A. Ozodlik havosidan to'yib nafas olgan xalq o'z yo'lidan hech qachon qaytmaydi. – T.: O'zbekiston, 2016. – 27 b.
4. Otamurodov S., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. – T.: Ma'naviyat, 2003 yil.
5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2006 yil.
6. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz takomil bosqichlari. – T.: Iqtisod maliya nashriyoti, 2006 yil.
7. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'ofur G'ulom, 2009 yil.